

SARATON KASALLIKLARINING KELIB CHIQISH SABABLARI VA UNING DASTLABKI ALOMATLARI.

Komiljanova Mahliyo Umid qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tibbiyot fakulteti 1-kurs Pediateriya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada onkologik kasalliklar qatoriga kiruvchi xavfli saraton kasalligi haqida ma'lumot berilgan. Kasallikning dastlabki alomatlari va kasallik bilan kurashish usullari yoritilib berilgan. Saratonni boshlang'ich davrlarida yengish usullari maqolada asosiy o'rinni egallaydi.*

Kalit so'zlar: *Saraton, ultrabinafsha nur, radiatsiya, tibbiyot, kasallik, mikrorentgen, chekish, tamaki, virus*

Абстрактный: *В данной статье представлена информация об опасном раке, который является одним из онкологических заболеваний. Освещены первые симптомы заболевания и способы борьбы с недугом. Основное место в статье занимают методы преодоления рака на начальных стадиях.*

Ключевые слова: *Рак, ультрафиолетовое излучение, радиация, медицина, болезнь, микро рентген, курение, табак, вирус*

Abstract: *This article provides information about dangerous cancer, which is one of the oncological diseases. The first symptoms of the disease and ways to fight the disease are highlighted. Methods of overcoming cancer in the initial stages occupy the main place in the article.*

Keywords: *Cancer, ultraviolet light, radiation, medicine, disease, micro X-ray, smoking, tobacco, virus*

Saraton (boshqa nomlari: kanser (lotincha: cancer — „qisqichbaqa“), rak (ruscha: рак)) deb hujayralarning atipik o'sishiga aytiladi. Atipik o'sish bunday hujayralar qarishi yoki jarohatlanishiga qaramay cheksiz ko'payishi bilan ifodalanadi. Sog'lom hujayradan farqli o'laroq, bunday hujayralarda tabiiy o'lim mexanizmi o'chirilgan, ya'ni ular to'xtovsiz bo'linish jarayonida bo'ladi. Saraton mutatsiyaga uchragan hujayralarga qarab asosiy 4 guruhga bo'linadi. Karsinoma — epitelial to'qimalarda, sarkoma — mezenxemal to'qimalarda, leykemiya — qon ishlab chiqaruvchi ilikda, limfoma va miyeloma — immunitet tizimi hujayralarida va miya va bosh miya hujayralarida atipik rivojlanishni anglatadi.

Saraton badanda joylashishiga qarab ham tasniflanishi mumkin, ya'ni ko'krak bezi saratoni, o'pka saratoni va hokazo. Ko'pchilik olimlar saraton kaslligini rivojlanishini kuchaytiruvchi 3 ta asosiy omilni ajratdi. Ulardan birinchisi radiatsiya, ikkinchisi ultrabinafsha nurlar, uchinchisi ayrim xavfli kasallik qo'zg'atuvchi viruslar. Bu omillar saraton rivojlanishining tashqi sabablari hisoblanadi. Biroq tashqi

sabablardan tashqari ichki sabablar ham mavjud- bu irsiy moyillikdir. Bu fikrlardan shuni xulosa qilish mumkin saraton- tashqi va ichki omillar ta'siri ostida tananing yetilmagan hujayralarining aniq genetik nuqson natijasidir. Bundan tashqari saraton kasalligi tamaki chekuvchi kashandalar orasida tobora keng tarqalmoqda.1 quti sigaretadan tahminan 8 mikrozivert chiqadi, bu 800 mikrorentgenga teng. Tasavvur qilinga ushbu miqdordagi radiatsiya 24 soat ichida butun boshli radiatsion fon hosil qiladi. Boshqacha qilib aytganda faol sigareta chekuvchi shaxs katta miqdorda zaharlovchi modda oladi, ulardan o'pka va oshqozon aziyat chekadi. Organizmda esa uch karrali radiatsiya dozasi hosil bo'ladi. Buning natijasida normal funksiyasini bajarayotgan hujayra va to'qimalar tartibsiz holatga kelib rivojlanishi buziladi. Hujayralar va to'qimalarning tartibi buzilganda shu organning o'sma hosil bo'lishiga moyilligi ortadi. Yevropa olimlarining fikrlariga ko'ra saraton bilan kurashishdagi eng yaxshi chorasi chekish va noto'g'ri ovqatlanish bilan kurashish va ultra binafsha nurlarni organizmga tushishini kamaytirish.

Onkologiya — tibbiyotning yuqori texnologik bo'limidir. Tashxisdan tortib to reabilitatsiya qilishgacha bo'lgan tibbiyotni tashkillashtirish bosqichlari logistikasi qancha yuqori bo'lsa, bemorni tiklanib ketishga bo'lgan imkoniyati shunchalik yuqori bo'ladi. Saraton bilan kasallangan bemorlar uchun yuqori darajadagi tibbiy yordam ko'rsatadigan mamlakatlar ham mavjud (Germaniya, Shveysariya, Isroil, Amerika Qo'shma Shtatlari). So'nggi yillarda Rossiya yuqori texnologiyali markazlarni yaratib, muayyan ijobiy qadamlar qo'ydi. O'zbekistonda ham ulkan imkoniyatlar yaratildi. Hozirda rak kasalligi davosi o'rganilmoqda. Agar erta yoki kech bosqichda tashxislanishiga keladigan bo'lsak, yuqorida aytib o'tilganlardan tashqari, dastlabki bosqichlarda tiklanish istiqbollari ancha yuqori.

Toshkentda 100 ming aholiga nisbatan onkologik kasalliklarga chalinish ko'rsatkichi 190 dan ortiq kishini tashkil qiladi. Bu respublikaning boshqa viloyatlariga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichdir. O'zbekistonning chekka hududlarida ko'rsatkich odatda 35-40 kishidan 50 kishigacha to'g'ri keladi. Shifokorlar, yoshlarda saraton kasalligining ko'payishiga ko'pincha odamlarning turmush tarzi - jismoniy faollikning kamayishi, qayta ishlangan oziq-ovqatlarni iste'mol qilish, yangi zaharli moddalar ta'siri va boshqa omillar sabab bo'lmoqda deb taxmin qilishyapti. Biroq, ekspertlarning ta'kidlashicha, semirish va muayyan turmush tarzi tendensiyani to'liq tushuntirib bera olmaydi. Davlatda qanchalik yoshlar ko'p bo'lsa, saraton kasalligi kam bo'ladi. Chunki, bu kasallik qariyalarga nisbatan yoshlarda kamroq uchraydi. Evropa davlatlarida, Rossiyada qariyalar ko'proq, yoshlar esa kam bo'lgani uchun ularda saratonga chalinish ko'rsatkichi ham balanddir. Bizda saraton kasalligining qo'shni mamlakatlarga nisbatan kamligiga sabab bu O'zbekiston aholisining ko'pchiligini yoshlar tashkil qilishidir. Bizda tug'ilish ko'rsatkichi yuqori, aholining 30 foizi mehnatga layoqatlilik yoshidan, ya'ni 18 yoshdan past bolalar, 30 foizdan ortiq, 40 foizga yaqin kishi mehnatga layoqatli yoshda. Atigi 10 foizdan oshiqroq qismigina qariyalardir. Biroq

«Bemorlar yosharmoqda. Ehtimol, bu atrof-muhitning qandaydir oʻzgarishi, oziq-ovqat, dori-darmonlar yoki biz hali aniqlamagan narsalar taʼsiri boʻlishi mumkin», dedi doktor Andrea Cherchek. U Nyu-Yorkdagi Memorial Sloan Kettering saraton markazida oshqozon-ichak saratonini ilk bosqichlarda aniqlash dasturiga rahbarlik qiladi. Uning soʻzlariga koʻra, saraton endi «keksalar kasalligi» emas. Demak ushbu kasallikdan nafaqat keksalar balki yoshlar ham himoyalaniishi kerak. Yaʼni aholi oʻrtasida kasallikni oldini olish uchun sogʻlom turmush tarziga rioya qilish dastlabki oʻrinlarda turadi. Saraton kasalligini oldini olish uchun esa tez tez shifokor koʻrigidan oʻtish tavsiya etiladi. Zero, saratonni boshlangʻich davrlarda yengish esa juda oson.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Murodxoʻjayev N.K., Ocherki sovremennoy onkologii, Toshkent, 1998.
2. K.A. Zufarov “Umumiy gistologiya”
3. Saratonga olib keladigan oziq-ovqat, 2020-11-26da asl nusxadan arxivlandi, qaraldi: 2020-12-03
4. OʻzME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil